

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi "Islomshunoslik va Islom sivilizatsiya tarixini o'rganish ICESCO" kafedrası PhD, To'ychiyeva Nilufar taqrizi ostida

Panjiyeva Marjonaxon Ravshanovna
O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi
"Islomshunoslik" ta'lim yo'nalishi talabasi.
Email: panjiyevamarjona72@gmail.com
+998901257166

**MUSO – FIR'AVN O'LDIRA OLMAGAN PAYG'AMBAR; QUR'ONI KARIM VA INJILDA
KELTIRILGAN MUSO QISSASINING QIYOSIY TAHLILY TAVFSILI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muso payg'ambarning ikki Muqaddas kitob– Qur'on va Injilda keltirilgan qissasining ilmiy qiyosiy jihatlari ko'rib chiqilgan. Avval tarjimayi holi haqida qisqacha bayon qilinib, so'ngra u kishiga ato etilgan turli hil mo'jizalarning har biriga to'xtalinib tahlil qilingan. Maqolada Muso payg'ambarning Misr xalqiga da'vati hamda yuborilgan mo'jizalar Misrning ijtimoiy muhitiga va ekologik hayotiga qay tarzda ta'sir qilgani to'g'risida so'z boradi. Ikki kitoblardagi oyatlar bir- biriga ilmiy nuqtayi nazardan qiyoslanib, tahlil qilib chiqildi va umumiy xulosa berildi.

Kalit so'zlar: Payg'ambar, fir'avn, qavm, daryo, shajara, kitob, shahar, Misr, vahiy, daraxt, vazir, oyat, bayon, mo'jiza.

Qur'oni karimda ismi eng ko'p zikr qilingan, fir'avn o'ldira olmagan, Misr shahzodasi bo'lgan, buyuk mo'jizalar sohibi va tanlab olingan payg'ambar – Muso (a.s). Hususan, Qur'onda 73 o'rinda, 25 surada 132 marta ismi keltirilgan Muso (a.s), Bani Isroil qavmidan bo'lib, Ya'qub (a.s) avlodidandir. Muso (a.s)ning yashagan davrlari qaysi asrlarga to'g'ri kelgani hali hamon noaniq bo'lsada, ammo ko'plab tarixchilar payg'ambarni miloddan avvalgi XIII asrlarda yashab o'tganligini ma'lumot tariqasida keltirishadi.

Payg'ambarning ismining tarixiga kelganda, uni tarixchilar quyidagi ma'nolarga ega deya ta'kidlashadi: Qur'onda Alloh shunday deb marhat qiladi: "Bas, qachonki u (olovning yaqiniga) kelgach: «Ey Muso», degan nido eshitildi". Muso isming ma'nosi ibroniy "moshe" ya'ni "suv orasidan chiqqan" yoki "suvdan" degan ma'noga ega. Chunki Muso (a.s)ni misr malikasi Osiyo topib olganida, Nil bo'yida opasi tomonidan oqizib yuborilgan bo'ladi. Shu tufayli u kishiga misr malikasi shunday ism qo'yadi. Muqaddas kitoblarda Muso payg'ambarga onalik qilgan misr malikasining ismi zikr qilinmagan, faqatgina Tavrot bundan mustasno. Ammo tarixiy manbaalarda uning ismi turlicha bo'lib keladi. Masalan, Islom tarixi manbaalarida va ko'pgina Qur'on tafsirlarida uning ismi Osiyo bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Jumladan Tavrotta esa "Bafya" ismi zikr qilinib, "Fir'avnning qizi" degan ma'noni bildiradi. Bundan kelib chiqadiki, yahudiylar tarixida u ayol fir'avnni qizi sifatida tanilgan. Shu bilan bir qatorda Injilda ham Osiyo fir'avnning qizi bo'lganligi haqida oyatlar mavjud. Injilning "Chiqish" bobining 5- oyatida quyidagicha keladi: "Va fir'avnning qizi daryo bo'yiga cho'milish uchun kanizaklari bilan chiqdi. Shu dam ko'zi savatga tushdi. U savatni kanizaklariga olib kelishni buyurdi". Tavrot va Injilda, hususan ba'zi islomiy manbaalarda keltirilishicha Osiyo Muso (a.s)ni topib olishidan bir necha kun avval, o'z farzandi o'lik tug'iladi. Ammo u o'z otasidan bu hodisani yashirgan holatda, Musoni o'z o'g'li sifatida tanitadi. Oradan yillar o'tib Muso payg'ambarga ilk vahiy nozil bo'lgunga qadar Osiyoning otasi vafot etib, uning o'rniga akasi tahtga keladi. Islom tarixi manbaalarida esa bu ma'lumotlar boshqacha tus olgan. Osiyo aslida fir'avnning ayoli bo'lganligi va u Muso (a.s)ni o'gil qilib olish taklifi bilan fir'avnning yoniga borganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Bu haqida Qur'onda shunday deyiladi: "**Fir'avnning xotini: «(Bu bola) men uchun ham, sen uchun ham ko'z quvonchidir. Uni o'ldirmanglar. Shoyadki, u bizga foyda bersa yoki uni bola qilib olsak», dedi. Holbuki, ular sezmasdilar.»** (Qasos surasi 9 oyat)

Boshqa payg'ambarlar orasidan Muso (a.s)ga berilgan eng oliy maqom bu- Alloh bilan to'g'ridan to'g'ri mulqot qilganligidir. Shu bois Muso payg'ambar "kaliymulloh" deb ataladi. Asl shajarasi Ya'qub (a.s)dan boshlanib, undan Ishoq (a.s), undan Ibrohim (a.s), undan Nuh (a.s)larga borib taqaladi. Payg'ambarning otasi kim bo'lganligi to'g'risida bir nechta tahminlar mavjud. Uning ismi Amram yoki arab tilidagi Imrom yoki Imron–

Muso (a.s)ning otasi bo'lib, islomiy va yahudiy manbaalarida, balki nasroniy manbaalarida ham ismi keltirilgan.¹ Uning ayoli ya'ni Muso payg'ambarning onasining ismi Ioxaveda² bo'lgan. U ayol Muso (a.s)ni fir'avn askarlari olib qo'yishidan qo'rqib, papirusga chaqaloqni o'raydi va daryo bo'ylab oqizib yuboradi. Chaqaloqni kuzatib borishni Muso (a.s)ning opasi Maryamga tayinlaydi va chaqaloq yuqorida keltirilganidek Osiyoning qo'liga borib tushadi. Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy Ma'naviy" kitobida keltirilishicha, Muso payg'ambarning otasi fir'avn qo'shinida sarkarda bo'lgan. Bu Islom tarixidagi eng nodir ma'lumotlardan biri hisoblanadi. U paytlarda fir'avn tug'ilgan har bir o'g'il chaqaloqlarni qatl qildirishga buyurgan va shu sababli o'z ayolidan uzoqlashish maqsadida Muso (a.s)ning otasi qo'shinlari bilan sahroga chiqib ketadi. Vaqti-vaqti bilan ayoli unga yegulik keltirib turadi. Ayoli erining ko'zlariga ko'rinmaslik uchun yuzini yopgan holda uning yoniga keladi. Ammo bu ishlar yordam bermaydi, chunki Bani Isroil qavmini qutqarish uchun Alloh tomonidan payg'ambar kelishi azaliy taqdirida bitilgan bo'ladi va Muso (a.s) dunyoga keladi.

Muso (a.s) yashagan paytlarda ko'pchilik Ramses II fir'avn bo'lganligini ta'kidlaydi. U o'ta zolim va mutakabbir bo'ladi. Shu sababli arab lug'atlarida aynan fir'avn so'zidan تَفْرَعَن "zolim bo'lmoqlik" va فَرَع fe'lidan esa "kibrilanmoq", "yuqoriga intilmoq" degan ma'nolar kelib chiqadi. Bu haqida Qur'onda shunday deyiladi: **"Albatta, Fir'avn yer yuzida baland ketdi" (Qasos surasi, 4 oyat)**. Muqaddas kitoblardan ko'pchilikka ma'lumki, Muso payg'ambar beixtiyor qotilikka qo'l urib qo'yib, shaharni tark etadi. Vaqt o'tib "Madyan" nomli qavmga borib hizmat qiladi. Madyan qavmi – yarim ko'chmanchi xalq bo'lib, Qur'oni Karim va Tavrotda nomi kelgan. Avraam ya'ni Ibrohim payg'ambarning Soradan keyin uylangan Xyettura ismli kanizagidan bo'lgan o'g'li Madyandan tarqalishgan. Tur vodiysi yaqinidagi hududlarda yashashgan.³ Madyan qavmi asosan tuyalar boqishgan va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Ular haqidagi ko'p ma'lumotlar asosan Muso payg'ambar qissalarida keltiriladi. Jumladan, Madyan qavmi ruhoniysi Iofor yoki Itroning qizi Sepforani nikohiga oladi va ikkita o'g'li bo'ladi.⁴ Itr – Tavrotda nomi zikr qilingan Madyan qavmining yo'l boshchisi, ruhoni, Sepfora ya'ni Tsiporaning⁵ otasi, Muso payg'ambarning qayinotasi, cho'pon, chorvador. Livan, Suriya va Iordaniyada tarqalgan arablarning otasi hisoblanadi. Injilda uning ismi Rag'uil va Xovav deb xam keltiriladi. Itroning Islom dinidagi Shuayb (a.s) deb talqin qilinishi ko'plab olimlar tomonidan asossiz deb qaraladi.⁶ Tavrotda kelishicha, Musoning akasi Horun va opasi Maryam, uning madyanlik qizga uylanganini yoqtirmay, hafa qilishga harakat qilishgan. Tarixchilar, bunga sabab, balki uning qoratanli ekanligi ham bo'lishi mumkin deb hisoblaydilar. **«Muso Qush yurtidan bo'lgan ayolga uylangani uchun Maryam bilan Horun Musoga qarshi gapira boshlashdi»⁷**

Oradan yillar o'tib, ilk vahiy nozil bo'ladi: **"Qachonki, Muso muddatni tugatib, ahli bilan yo'lga tushib ketayotib, Tur tomonda uzoqdan olovni ko'rib qoldi. U ahliga: «Turib turinglar, aniqki, men uzoqdan olovni ko'rdim. Balki u yerdan sizga biror xabar yoki isinishingiz uchun bir tutam cho'g' olib kelarman», dedi." (Qasos surasi 29 oyat)**. Bu voqea Sinay vodiysining Tur tog'ida sodir bo'lgan. Va davomida:

¹ Shmot 6:16-20

² Ioxaveda – Islom dinidagi Yaqubayt

³ "Qadimgi Misr va Muso alayhissalom." 218, Boburbek Egamberdiyev, Toshkent 2022.

⁴ Shmot 2:21

⁵ Tsipora – arab tilida «Siffura» bo'lib keladi, Itroning qizi, Musoning ayoli, Gershom va Eliazarning onasi.

⁶ Пиотровский М.Б. Коранические сказания. – Главная редакция восточной литературы, 1991. – 219 ст

⁷ Qush yurti deb, Nubiya yoki Xabashiston Efiopiya hudulari nazarda tutilgan. Bemidbar (Sonlar) 12:1

“Bas, qachonki uning oldiga yetib kelganida, vodiyning o‘ng tomonidan, muborak joydan, daraxtdan unga: «Ey Muso, albatta, Men, O‘zim, olamlarning Robbi Allohdirman.” (Qasos surasi 30 oyat). E‘tiborlisi shundaki, Qu‘roni karimda “daraxt tomonidan” ya‘ni الشجرة "keltirilgan. Ammo Injilda bu hodisa daraxt bilan emas, balki buta bilan bog‘liq holda keladi. “Eski Ahd” kitobining “Chiqish” bobida Muso (a.s)ga ilk vahiy quyidagicha nozil bo‘lganligini bayon qilinadi: “Muso: “Juda g‘alati–ku, borib, bir qaray–chi, buta nimaga yonib tugamayapti ekan”, deb o‘yladi.” Ya‘ni, Muso payg‘ambarga vahiy nozil bo‘lishidam avval turli xil tushlar va ro‘yolar uni bezovta qila boshlaydi. U Tur tog‘iga chiqib qaragan yonib turgan butani ko‘radi, ammo u hech o‘chmaydi. Qancha yonsa ham, ammo kul bo‘lmaydi. Shu tufayli butaning yonishi ibroniy xalqlarining timsoli hisoblanadi.

Muso payg‘ambarga fir‘avndan Bani Isroilni qutqarish va barchani yagona Allohga ibodat qilishga da‘vat etish ma‘sulyati yuklanadi. Muso (a.s) Allohdan bunday og‘ir ishga yordamchi etib ukasi Horunni ham qo‘shib berishini so‘raydi: **Birodarim Horun mendan ko‘ra tili burroroq, uni ham men bilan yubor, meni tasdiqlaydir. Zero, ular meni yolg‘onchi qilishlaridan qo‘rqurman», dedi. (Qasos surasi 34 oyat).** Qur‘onda Horun (a.s)ni Alloh payg‘ambarlar safida keltirib, shunday tavsiflaydi: **“Batahqiq, Biz Muso va Horunga Furqonni taqvodorlar uchun ziyo va eslatma qilib berdik.” (Anbiyo surasi 48 oyat).** Qu‘ron va Injilda Muso (a.s)ning ukasi Horun, undan ko‘ra so‘zga chechanligi keltiriladi. Ya‘ni, ba‘zi dinshunos tarixchilar, Muso payg‘ambarning duduq bo‘lganligini ta‘kidlaganlar. Shunga dalil sifatida Muso (a.s) **“Birodarim Horun mendan ko‘ra tili burroroq” (Qasos surasi 34 oyat)** deya ta‘kidlagan. Farqli jihati shundaki, Qur‘onda Muso payg‘ambar o‘ziga sherik qilib ukasi Horunni tayinlagan. Ammo “Eski Ahd”da, Muso payg‘ambarga Horun (a.s) uka emas aka sifatida keltirilgan. Ilk vahiy nozil bo‘lganda Muso (a.s) akasi borligini hatto bilmagan. Uni vazir etib tayinlanishi Xudo tomonidan sodir bo‘lgan deyilgan. Payg‘ambarga Horun (a.s)ni shaharga qaytib borganida topish va fir‘avn yoniga borib, Bani Isroilni ozod etishlik vazifasi yuklanadi. “Eski ahd” “Chiqish” bobining 14 oyatida bu haqida quyidagicha keladi: “Horun Leviyning avlodi, sening ining emasmi? Men uni yaxshi gapirishini bilaman. Qara, u sen bilan ko‘rishadi, ko‘ngli quvonadi”, dedi. Muso (a.s) shaharga borganida Horun (a.s)ni topishi qiyin bo‘lmagan, chunki unga ham vahiy orqali hammasi bayon etilgan bo‘ladi. So‘ngra ular fir‘avnga yuzlanadilar va mo‘jizalar aynan shu nuqtadan yuz berishni boshlaydi.

Umumiy hisobda Qur‘oni karimda bu mo‘jizalardan 9 tasi zikr qilinadi. Injilda esa Musoga 10 mo‘jiza berilgani to‘g‘risida keltirilgan. Lekin aslida bunday g‘ayri oddiy hodisalar Muso (a.s) hayotida ko‘plab sodir bo‘lgan, asosiy nuqtalari Muqaddas kitoblarda bayon qilingan. Tarixchi dinshunoslar tadqiqotlariga nazar solinsa, ular olib borgan tahliliy ekspeditsiyalarda aniqlanishicha mo‘jizalarni Misr ahli hayotiga, tabiat olamiga, ijtimoiy siyosiy jarayonlariga va etnik shakllanishiga kuchli ta‘sir qilgan.

Birinchi mo‘jiza Qur‘oni karimda shunday keltiriladi: Fir‘avn yoniga kirish uchun ham Muso va Horun payg‘ambarga Alloh tomonidan yordam keldi. Musoning qo‘lidan nur chiqishi ilk mo‘jizalardan biri hisoblanib bu haqida Qur‘onda quyidagicha keladi: **“Va qo‘lini chiqargan edi, banogoh u nazar soluvchilarga oppoq bo‘lib ko‘rindi.” (A‘rof surasi 108 oyat).** Va yana bir oyatda: **Qo‘lingni yoqangning ichiga suq, hech qanday yomonliksiz oppoq bo‘lib chiqur. Fir‘avn va uning qavmiga qaratilgan to‘qqiz mo‘jiza orasida (bu bordir). Albatta, ular buzg‘unchi qavm bo‘ldilar (Naml surasi 12 oyat).**

Muso va Horun fir‘avnga Allohning buyrug‘ini bayon qilishganda, fir‘avn ulardan **“Sizlarning Parvardigoringiz kim, ey Muso?” (To Ha surasi 49 oyat)** deya so‘radi. Shunda Muso (a.s): **“Parvardigoringimiz barcha narsaga o‘z xilqatini — shaklini ato etib, so‘ngra (uni) to‘g‘ri yo‘lga solib qo‘ygan zotdir” (To Ha surasi 50 oyat) (Fir‘avn) dedi: “U holda avvalgi avlodlarning holi nedir? (Ya‘ni Parvardigoring ularni ham azoblaganmi?)” (Muso) aytdi: Ular haqidagi bilim Parvardigoring huzuridagi Kitobda — Lavhul-Mahfuzdadir. Parvardigoring adashmas va unutmaz” (To Ha surasi 50-52 chi oyatlar).** Huddi shu voqeaning Eski ahddagi bayoni “Chiqish” bobining 6-7 chi oyatlarida kelgan: Va yana Xudo unga: **“Qo‘lingni ko‘kragingga qo‘y”, dedi. Va u qo‘lini ko‘kragiga qo‘ydi va olib chiqqanida, qo‘li oq bo‘lib qolgan edi, qo‘llari qorday oqargan edi. Va u yana dedi: “Qo‘lingni yana ko‘kragingga qo‘y”. Va u qo‘lini yana ko‘kragiga qo‘ydi va olib chiqqanida, qo‘li yana avvalgidek toza bo‘lib qoldi. Fir‘avn Muso va Horun (a.s)larga keskin raddiyalar berib ular keltirgan mo‘jizalarni inkor qildi. Bu hodisani ko‘rgan misr ahli ularni kulguga qo‘yib, mazah qilishdi. Tarixiy manbaalarda keltirilishicha Muso va Horun (a.s) fir‘avn yoniga bayram kuni borishgan, bu bayramda fir‘avn misr ahli nima so‘rasa shuni berishni va‘da qilgan. Shundan umidvor bo‘lib, Muso va Horun (a.s)lar Bani Isroil qavmini qullikdan ozod qilishini undan so‘raydilar. Ular fir‘avnga uch kun muhlat ichida, shaharni tark etib,**

o'z Hudolari uchun qurbonlik so'yib, so'ngra yana qaytishga va'da beradilar. Bu haqida Eski Ahdning "Chiqish" bobi 18chi oyatida shunday keltiriladi: «Ular sening so'zingni eshitadilar; shundan so'ng, sen va Isroil oqsoqollari Misr podshohiga borib, unga shunday denglar: 'Yahudiylarning Xudosi bizga zohir bo'ldi; endi uch kunlik safar bilan cho'lga borib, Xudoyimiz Egamizga qurbonlik keltirishimizga ijozat ber'». Qur'oni karimda aynan shu oyatga muqobil oyat keltirilmagan, ammo Injildan farqli o'laroq Muso payg'ambar yakkahudolikka da'vat etgan holatda Bani Isroilni u bilan ozod etishini fir'avndan talab qilganligi to'g'risida oyatlar kelgan. Hususan, **"Mening zimmamda Alloh sha'niga faqat haqni aytish bordir. Mana, sizlarga Parvardigoringizdan hujjat keltirdim. Bas, endi Bani Isroilni men bilan birga (o'z yurtlariga) jo'natgin."** (A'rof surasi 105 oyat). Muso (a.s)ning bu da'volariga fir'avn isbot so'raydi, shunda ikkinchi mo'jiza bo'lmish "Aso" Allohning izni bilan ilonga aylanadi. Bu haqida Qur'oni karimda quyidagicha keladi: **"Shunda (Muso) hassasini tashladi, birdaniga aniq ilon bo'ldi"** (Shuaro surasi 32 oyat). Asoning ilonga aylanishi fir'avn saroyida bo'lgan har kimni lol qoldirdi. Shunda fir'avn o'zining malakali sehrgarlarini Muso (a.s) bilan bellashuvga chaqirdi. Ular ma'lum kunni belgilab ko'rishib, musobaqalashishga kelishdilar. Shu yerda nozik nuqta mavjud. Qur'onning Shuaro surasida keltirilgan Muso qissasiga nazar solib oyatlar ketma-ketligida o'qib chiqilsa, kishi, Muso (a.s) asoni birinchi marta sehrgarlardan holi holatda faqat fir'avn va shahar aholisi yonida otganligiga guvoh bo'ladi. Keyin ular ma'lum kun belgilab alohida musobaqa qilishadi. Shu o'rinda Injilda bu hodisa ozroq farqli keltirilgan. Fir'avn Muso (a.s)ning asosi ilonga aylanganida o'zining kuchini ko'rsatish maqsadida shu zahoti sehrgarlariga ular ham shunday "sehr" qilishini talab qiladi. Ammo ularning ishi faqat ko'zbo'yamachilikdan iborat bo'ladi holos va shu tufayli mag'lubiyatga uchraydilar. Fir'avn o'zini xalq orasida uyatga qolmasligi uchun barchasini kulguga olgan holatda, tayyorlangan "ssenariy" dek ko'rsatadi. Buni ko'rgan Misr xalqi Muso (a.s) keltirgan mo'jizani jiddiy qabul qilmaydi. Ammo Allohning qudratini ko'rgan fir'avn sehrgarlari, shu zahoti iymon keltirishadi.

Alloh fir'avn tarafdorlari yashagan yerlarga qahatchilik, suvsizlik va ocharchilik balosini yuboradi. Bu ham ularga keltirilgan oyat-mo'jizalarning uchinchi bo'lib, Qur'onda shunday keladi: **"Qasamki, Biz Fir'avn odamlari pand-nasihat olishlari uchun (qahatchilik) yillari bilan va meva-chevalarning hosilini kamaytirish bilan ushladik"** (A'rof surasi 130 oyat). Fir'avnning inkoridan so'ng butun Misr ahliga balalar kela boshlaydi. Faqatgina Bani Isroil qavmiga bu balalar ozor keltirmaydi. Ular yashayotgan yerlarni balalar chetlab o'tgani ham fir'avnni chuqur o'yantirib qo'ygan oyat-mo'jizalardan biri bo'ladi. Buning davomida ularga keyingi jazo sifatida Alloh tomonidan to'fon yuboriladi. Ammo ikkala Muqaddas kitobda ham to'fon kelishi haqida oyatlarda batafsil bayon qilinmagan. To'fon– yuborilgan to'qqiz mo'jizaning to'rtinchisidir.

Shuningdek, Qur'on va Injilda keltirilgan chigirtka beshinchi mo'jiza hisoblanadi. Ammo Qur'onda bu tabiat hodisasi to'liq yoritib berilmagan qisqa qilib A'rof surasi 133 oyatda keltirilgan. Eski ahdda esa bu haqida oyatlar mavjud, "Chiqish" bobi 12-15chi oyatlarida: Xudo Musoga: "Qo'lingni Misr yerlariga cho'z, chigirtka yerga kelishi va yerdagi barcha o'simliklarni yeb tugatishi uchun", dedi. Shunda Muso qo'lini Misr yerlariga cho'zdi, va Xudo Misrga sharq shamolini yubordi, u chigirtkalarni olib keldi. Chigirtka butun Misr yuziga kelib, yerga jamlandi; undan oldin bu kabi ko'p chigirtka bo'lmagan va keyingi paytda ham bo'lmaydi. Chigirtka yerdagi o't-o'lan, o'simlik va barglar, daraxtlardagi mevalarni yeb ketdi, yashil bo'lgan hech nima Misr yerida qolmadi. "Ba'zida fir'avn Muso (a.s) bilan kelishmoqlik istaydi va uni takliflariga nisbatan "oltin o'rtaliq" ya'ni vasatiani qidiradi. Muso (a.s)ni saroyiga chaqirtirib, Undan duo qilib bu balolarni Misrdan Alloh ketkazishini so'raydi va evaziga ularni qo'yib yuborishini aytadi, va Muso (a.s) duo qiladi, Alloh shamol yo'nalishini g'arbga qaratib o'zgartiradi, chigirtkalarni Qizil dengiz tomon uchirib ketadi. Ammo, Fir'avn har doimgidek Isroil xalqini qo'yib yubormaydi.

Bu hodisalar, fir'avn tarafdorlari va misr ahlini juda qiyin ahvolga solib qo'ygan. Jumladan Misrni bit bosishi, qissadagi oltinchi mo'jizaga oid, bir nechta qiziq faktlar mavjud. Qadimgi misrliklar soch soqol o'stirishdan tiyilib yashaganlariga guvoh bo'lamiz. Misrning tarixiy kitoblarida, ayollarining sochlari juda kalta erkaklarini esa umuman soch o'stirmagan holatdagi tasvirlarini topish mumkin. Sababi shundaki, misrliklar bitdan juda qo'rqqanlar. Shu tufayli sochlarini doimiy qirib yurganlar. Bitlar bosqini insonlardan tashqari chorva hayvonlarini ham chetlab o'tmagan. Aynan shu taraflama ularga balo kelgani fir'avnni ancha charchatib qo'ygan. Fir'avn shundan so'ng Muso (a.s)ga sulhni taklif qiladi. Muso payg'ambar Bani Isroil qavmi bilan uch kun muddatga sahroga chiqib jonliq so'yib, so'ngra qaytishini aytadi, ammo fir'avn shahar ichida barchasini qilishga ruhsat beradi. Bu taklifga Muso (a.s) ko'nmaydi. So'ngra ular uch kun emas ikki kunga kelishishadi. Ammo ketish payti kelganda fir'avn ahdidan qaytib sulhni buzadi va Bani Isroilni uqubatlarga duchor qiladi.

Keyingi qadam fir'avn uchun kelgan eng og'ir jazolardan – Nil daryosining qonga aylanishi bo'ladi. Qadimdan Nil daryosi aholining eng asosiy hayot omili hisoblangan. Chorvachilikdan tortib baliq ovigacha misrliklar Nildan foydalanishgan. Bunday imtihonning yuborilishi quyidagi oyat bilan Qur'onda keltiriladi: **“Bas, Biz ularning ustlariga to'fon (sel), chigirtka, bit, baqa va qon (balolarini) ochiq oyat-mo'jizalar qilib yubordik. (Lekin) ular kibr-havo qildilar va jinoyatchi — osiy qavm bo'ldilar”** (A'rof surasi 133 oyat). Shuningdek, Eski ahdning “Chiqish” bobi 20 chi oyatida: Va Muso va Horun Xudoning buyrug'iga asosan qildilar: Muso qo'lini ko'tarib, asosi bilan daryo suvini urdi, va fir'avn oldida va xizmatkorlarning ko'z o'ngida, daryo suvi qonga aylangan edi. Oyat davomida: Va daryodagi baliqlar o'ldi, va hid taratib, misrliklar daryo suvini icholmadilar; va butun Misr diyorida qon bo'ldi. Tavrotda ham ushbu hodisa zikr qilingan: “Ertaga ertalab fir'avnning oldiga bor. U Nil daryosiga chiqadi. Uni qarshi olish uchun Nil daryosining sohilida tur, ilonga aylangan o'sha tayo'ging ham qo'lingda bo'lsin”.⁸ Bundan keyin Yahova Musoga shunday dedi: “Horunga: “Suvlar qonga aylanishi uchun tayo'gingni olib, Misrning butun suvlariga – daryolari, anhorlari, botqoqlari va barcha suv omborlari tomoniga uzat”, – deb ayt. Shunda butun Misr yurtidagi suvlar, hatto yog'ochdan hamda toshdan yasalgan idishlardagi suvlar ham qonga aylanadi”.⁹ Bu hodisani ko'rgan fir'avn ichidan vahimaga tushgan bo'lsada, ammo payg'ambarlarga bildirmadi. Muso undan javob talab qilganida u ahlini suvning o'rniga uzumdan qilingan may bilan ta'minlashini aytib ortiga qaytdi. Bu jazo fir'avnning a'yonlarini ham vahimaga tushurib qo'ygan edi. Avvalroq ular Musoga yengilmaslikni fir'avnga o'qtirayotgan bo'lsalar, bunday balolarni ko'rib, uni bu yo'ldan qaytishini iltimos qila boshladilar. Lekin endi fir'avn yengilish fikriga butkul qarshi bo'lib, unga qarshi kuch to'play boshlaydi. Nilning qonga aylanganligi haqida ilmiy ekspeditsiyalarda ma'lum bo'lishicha, “Dinoflagelyat” nomli bakteriyaning keskin ko'payishi natijasida shunday tabiat hodisasi sodir bo'ladi¹⁰. Bunday turdagi bakteriya ko'payishi oqibatida birinchi bo'lib katta zararni suv hayvonlari ko'radi. Ko'p yillardan buyon bu tabiat hodisasining asl sababi o'rganilmoqda va ko'plab tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Ammo, ularning hech biri aniq sabab keltira olmagan, keltirgan bo'lishsa ham bu faqat gipoteza holos.

Qur'onda keltirilgan ba'zi mo'jizalar Injilda keltirilmagan, yoki shuning teskarisi, shu ikkala kitoblarning o'ziga xosligini bildiradi. Ammo ikkala kitoblarda shu oyatlarga iishora qiluvchi umumiy ma'nodagi oyatlari ham yo'q emas. Qiyoslab ko'rilganda, yuqorida keltirilgan oyat-mo'jizalar Muso (a.s) qissasining kulminatsion nuqtalaridir. Bular umumiy jihatlariga ega Muqaddas kitoblarda jam bo'lgan oyat mo'jizalar hisoblanadi.

Injilda keltirilgan ammo Qur'onda bayon qilinmagan yana bir mo'jizalardan; Misr o'lkasini uch kunlik zulmat qoplab olishi va to'ng'ich farzandlarning halok bo'lishidir. Bu haqidagi oyatlar Eski ahdda va Tavrotda uchraydi. Jumladan, Tavrotda shunday keltiriladi: “So'ng Yahova Musoga: “Misr yurtini qorong'ilik, quyuq qorong'ilik qoplashi uchun qo'lingni osmonga ko'tar,” dedi.”¹¹ Shuningdek Eski ahdning “ Chiqish” bobi 21-23chi oyatlarida: “Va Xudo Musoga dedi: Qo'lingni osmonga ko'tar va Misr yurtida zulmat, o'zini sezdiradigan zulmat bo'lsin. Muso qo'lini osmonga ko'tardi va Misr yurtining hamma yerida uch kun davomida qalin zulmat bo'ldi. Ular bir-birini ko'rmas edi va uch kun davomida hech kim o'z joyidan qimirlamadi; lekin Isroil o'g'illarining hammasining uylarida nur bor edi”. Bu holatga bardoshi yetmagan fir'avn Musoga chorva mollarini tashlab Misrni tark etishga ruxsat beradi. Ammo, Muso ularni qurbonlik uchun taqdim etish sababi ila kerakligini bildirib rad etadi. Shundan so'ng fir'avnning jahli chiqib, uni oldidan quvib yuboradi va yana keladigan bo'lsa qatl etilishini aytib tahdid qiladi.¹².

Fir'avnga oxirgi balo kelishi uni va uning tarafdorlarini butkul holdan toydirib, Bani Isroil qavmini qo'yib yuborishga majbur qiladi. “Yarim tunida Xudo Misr yerida barcha to'ng'ichlarni jazoladi: fir'avnning taxtida

⁸ Shmot 7:15

⁹ Shmot 7:19

¹⁰ Qadimgi Misr va Muso alayhissalom.” 319, Boburbek Egamberdiyev, Toshkent 2022.

¹¹ Shmot 10:21

¹² Qadimgi Misr va Muso alayhissalom.” 211,, Boburbek Egamberdiyev, Toshkent 2022.

o'tirgan to'ng'ichdan tortib, zindonda bo'lgan to'ng'ichgacha va barcha chorva mollarining birinchi tug'ilganlariga qadar. Fir'avn va barcha xizmatkorlari bilan birga, va butun Misr tunda uyg'ondi; Misrni katta motam tutdi, chunki hech bir yerda o'lim bo'lmagan uy yo'q edi." (Chiqish 29-30). Misrliklar orasida kuchli dod-faryod ko'tarildi, odam o'lmagan xonadonning o'zi yo'q edi. Fir'avnning o'zining to'ng'ich farzandi halok bo'ldi. Buni ko'rgan fir'avn motam bilan Muso (a.s)ni huzuriga chaqirib Isoril xalqini Misrdan olib chiqib ketishini talab qilib, ularni quvib yubordi. Misrni 600mingdan ortiq aholi tark etdi. So'ngra Fir'avnning ichida qasos alangasi o't oldi va Muso (a.s)ni yo'q qilish uchun qo'lidan kelganicha kuch to'play boshladi.

Bani Isroilga Alloh Misrni tark etishni amr qildi. Bu haqida Qur'onda shunday bayon qilinadi: **“Biz Musoga: “Bandalarim bilan tunda yo'lga chiqing! Albatta, sizlarning izingizga tushilur,” deb vahiy yubordik. Bas, Fir'avn barcha shaharlar va yig'uvchilarini jo'natdi (va dedi): “Aniqki, ular bir hovuch yalangoyoqlardir. Darhaqiqat, ular bizlarni g'azablantirdilar. Shubhasiz, bizlar barcha ehtiyot choralarni ko'rib turuvchi qavmmizdir.” Bas, mana shunday qilib Biz ularni bog'lar va buloqlardan, xazinalar va ulug'-go'zal maskanlardan ajratdik va mana shunday qilib, Biz ularga Bani Isroilni voris qildik. Bas, tong paytida ularni quvib yetdilar. Endi qachonki ikki jamoat bir-birlarini ko'rgach, Musoning hamrohlaridan: “Bizlar aniq tutildik”, dedilar. (Muso) aytdi: ‘Yo'q, aniqki, men bilan birga Parvardigorim bor. Albatta, U meni yo'liga boshlar.” Bas, Biz Musoga: “Asoyig bilan dengizni urgin,” deb vahiy yubordik. Bas, bo'linib har bir bo'lak (suv) baland tog' kabi bo'ldi. Va keyingilarni o'sha (yo'lga) yaqin qildik. Muso hamda u bilan birga bo'lgan kishilarning barchasiga najot berdik. So'ngra keyingilarni g'arq qilib yubordik. Albatta, bunda oyat-ibrat bordir. Ko'plari imon keltirguvchi bo'lmadilar. Shak-shubhasiz, Parvardigoringiz O'zi g'olib, mehribondir” (Shu'aro surasi 52-68 oyatlar).** Allohning qudrati bilan Muso (a.s) va uning qavmi dengizning narigi betiga sog'-salomat o'tib oldilar. Dengizning ikkiga bo'linishi qissaning to'qqizinchi mo'jizasi edi. Bu mo'jizani ko'rgan fir'avn va uning lashkarlari Bani Isroilni quvib kelayotganda g'arq bo'ldilar. **“Biz Bani Isroilni dengizdan o'tkazganimizdan so'ng ularga zulm va zo'rvonlik qilish uchun Fir'avn va lashkarlari quvib yetdilar. Endi unga g'arq bo'lish (payti) yetganida esa, u dedi: “Hech qanday iloh yo'q, magar Bani Isroil imon keltirgan Zot – Allohgagina imon keltirdim. Men musulmonlardandirman – Allohga bo'ysunuvchilardandirman.” Endi-ya?! Axir sen ilgari itoatsizlik qilgan va buzg'unchi kimsalardan bo'lgan eding-ku? Mana bugun o'zingdan keyingi kishilarga oyat-ibrat bo'lishing uchun Biz sening jasadningni qutqaramiz. Darhaqiqat, ko'p odamlar Bizning oyatlarimizdan g'ofildirlar. Shubhasiz, Biz Bani Isroilni go'zal manzilga joylashtirdik va ularga halal-pok narsalardan rizq va ro'z beradik. So'ngra ular to' bilim kelgunicha ihtilof qilmadilar. Albatta, Parvardigoringiz Qiyomat kunida talashib-tortishgan narsalari haqida ular o'rtasida O'zi hakamlik qilur” (Yunus surasi 90–93 oyatlar).** Ya'ni Bani Isroil dengizning narigi betiga o'tganidan so'ng, dengiz yana o'z holatiga kela boshladi va fir'avn va uning barcha a'yonlarini o'ziga g'arq qildi. Eski ahdning “Chiqish” bobi 21-28chi oyatlari esa shu hodisani quyidagicha bayon qiladi: “Muso qo'lini dengiz ustiga cho'zdi. Xudo dengizni kuchli sharqiy shamol bilan butun tun davomida qaytardi va dengizni quruq yerga aylantirdi. Suvlar ikkiga bo'linib, Isroil xalqi dengizdan quruq yer orqali o'tdi: suvlar ularning o'ng va chap tomonlarida devor bo'lib turdi. Misrliklar ularning ketidan quvib, dengiz o'rtasiga kirdilar — fir'avnning barcha otlari, aravalari va chavandozlari.”, “Xudo Musoga dedi: “Qo'lingni dengiz ustiga cho'z, shunda suvlar misrliklar, ularning aravalari va chavandozlarini yopadi.” Muso qo'lini dengiz ustiga cho'zdi, tong otganda suv o'z joyiga qaytdi. Misrliklar suvning qarshisiga yugurishdi va Egamiz misrliklarni dengiz o'rtasida g'arq qildi. Suvlar qaytib kelib, fir'avnning barcha aravalari va chavandozlarini yopdi, ulardan birontasi ham qolmadi.”. Rivoyatlarga qaraganda, fir'avn g'arq bo'lgan dengiz o'sha paytda “Qulzum” deb atalgan. Qulzum so'zi – qolzatundand yasalgan bo'lib, u – yutib yubormoq ma'nosini anglatadi. Chunki Qulzum dengiziga tushgan odam, u tomonidan yutib yuborilar yoki cho'kib ketar edi. Ibn Xalavayh aytadi: Qulzum aslida – Zulqum shakliga ega bo'lib, ushbu so'zdagi harflar o'rni almashib, shunday holatga kelib qolgan¹³. Ko'plab tarixchilar fikriga ko'ra bu hozirgi Qizil dengizga to'g'ri keladi. E'tiborlisi shundaki, Qur'onda dengizning ikkiga bo'linishida Muso payg'ambarning asosi ham ishtirok etgan, ya'ni aso bilan urganda dengiz bo'lingan, ammo Injilni shu yerda Qur'ondan ajratib qo'ygan yaqqol farqini ko'rishimiz mumkin. Ma'nolar va voqealar umumiy natijaga olib kelsada, ba'zi nuqtalarda tafovutlar mavud. Yana bir farqli jihatga e'tibor qaratilsa Qur'ondan ma'lum bo'lishicha, kelgusi avlodlarga ibrat sifatida fir'avnning jasadini Alloh saqlab qolgan. Ammo, Injilda biz bu haqida hech qanday ma'lumot topa olmaymiz. Undan tashqari fir'avn iymonga kelganmi yo'qmi, bu haqida ham hech qanday oyat yo'q. Injil asosan dengizning mo'jizaviy tarzda

¹³ Ibn Manzur, -Lisanul Arob 5-juz 3719-bet.

ikkiga bo'linganiga urg'u bersa, Qur'on ko'proq Allohning qudrati va fir'avnning iymonga kelganiga urg'u bergan. Shuningdek, Injilda kuchli shamol bilan bog'liq oyat mavjud bo'lsa, Qur'onda bu haqida hech nima deyilmagan.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, qissadagi bunday mo'jizalar insonda Allohning qudratiga tan berishdan boshqa chora qoldirmaydi. Undagi, noyob tabiat hodisalaridan tortib dengizning ikkiga bo'linishigacha sodir bo'lgan voqealar rivojini mutolaa qilish, o'quvchilarga o'ziga xos ma'naviy ozuqa va zavq beradi.

Barchaga ma'lumki Qur'on jamiyki Muqaddas kitoblarning oxirgisi va mukammali hisoblanib undagi oyatlar mutloq haqiqat va shubhaga zinhor loyiq emasdir. Maqolaning asosiy maqsadi ikki Muqaddas kitobning o'rtasidagi ustunlikni ko'rsatish emas balki, ikkalasidan ham umumiy jihatlarni topish va ularni ilmiy tahliliy asosda qiyoslashdir. Va shu o'rinda yosh tadqiqotchi, dinshunos-tarixchilar manbaalariga foyda o'laroq xizmat qilish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boburbek Egamberganov "Qadimgi Misr va Muso alayhissalom" Toshkent, 2022.
2. Alovuddin Mansur "Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimai" Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти (Uzbekistan National Encyclopedia Publishing House) Toshkent, 2002.
3. Синодальное Библейское Общество. Библия. Ветхий и Новый Завет. Санкт-Петербург: Библейское Общество, 2000.
4. Damin Jumaqulning "Muso alayhissalomning muhtarama onalari" maqolasi.
5. Иосиф Флавий. О древности еврейского народа. Книга первая